SIRDARYO VILOYATI YANGIYER SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 28 - dekabr 291-9-132-Q/23 Yangier shahar hokimligi

Yangiyer shahar hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari, ichki xo‘jalik yo‘llari va markaziy ko‘chalarda fuqarolar va transport vositalari harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazilar Mahkamasining 2022-yil 12-aprel kungi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarorlarida hamda “2022-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini rivojlantirish strategiyasiga muvofiq, shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida avtomobil yo‘llarida inson hayoti va sog‘lig‘ini har qanday hodisalardan kafolatli himoya qilish maqsadida, mamlakatimizda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning dolzarb yo‘nalishlari-avtomobil yo‘llari infaratuzilmasini takomillashtirish va ularning sifatini yaxshilash, yo‘l harakati ishtirokchilarining “piyoda-jamoat transport-velotransport-avtotransport” ustivorligi asosida xavfsiz harakatlanishi uchun ishonchli shart-sharoitlar yaratish, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash borasida sun’iy notekisliklarni tashkil etish maqsadida; qaror qilaman:

1. Hududdagi aholining murojaati va Yangiyer shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasining 2023-yil 27-noyabrdagi 32/5293-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin va ma’qullansin.

2. Shahar hududidagi M-34 avtoyo‘lining 144 km, Avtoshoxbekat qarshisiga, Paxtakor ko‘chasi bilan kesishgan chorraxasi hamda Yangiyer Dehqon bozori

qarshisiga. Yangi asr ko‘chasida joylashgan Yangiyer shahar hokimligi binosi, Qishloq qurilish bankning Yangiyer filiali binosi, Yangiyer DXX binosi, Yangiyer shahar Tibbiyot birlashmasi binolar qarshisiga Yo‘l harakati qoidalarining 3.27 yo‘l belgisini o‘rnatish tashkil etilsin.

3. Yangiyer shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (B.Xudoybergenov), shahar Obodonlashtirish boshqarmasi (Q. Radjabov) hamda Xovos tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi, "Z.Bobur", "Fazilat" hamda "Shukrona" MFY raislari bilan birgalikda yo'l belgilarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga mos ravishda tashkil yetish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni ko‘rsin.

4. Mazkur qaror Yangiyer shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari F. Babaxanov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **O.Nosirov**